

O'ZBEK TILIDA "TARBIYA", "HALOLLIK", "MA'NAVIYAT" BIRLIKLARINING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

Maxmudova Malika Djamoliddin qizi

Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi tarbiyachi-pedagogi

malikamaxmudzoda@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz orqali o'zbek tilidagi axloqqa oid bo'lgan "tarbiya", "halollik", "ma'naviyat" singari ijobiy birliklarning ma'nolari, ularning jamiyatda qay darajada muhimligi va o'rni, shuningdek, ularning umumiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Axloq, tarbiya, halollik, ma'naviyat, axloqiy birlik

Annotation: Through this article, we will discuss the meanings of positive units such as "education", "honesty", "spirituality" in the uzbek language, their importance and place in society, as well as their general characteristics.

Key words: Ethics, upbringing, honesty, spirituality, moral unity

O'zbek xalqi azaldan milliy an'ana va urf-odatlariga, qadriyatlarga tayanib yashab kelgan. Shu tufayli insonlarning ongida axloq masalasi ham mentalitetimizga xos tarzda shakllangan. Zero, birgina "axloq" atamasi o'zida "tarbiya", "halollik", "insof", "vijdon", "ma'naviyat" singari juda ko'plab terminlarni jamlagan.

Mazkur maqolamiz orqali shu kabi axloqiy birliklarning o'zbek tilidagi ma'naviy xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik. Avvalo, axloqning asosiy negizi bo'lgan tarbiya haqida fikr yuritsak.

Xo'sh, tarbiya o'zi nima?

Bilamizki, tarbiya insonning jamiyatda yashashi va shu jamiyatning bir bo'g'ini bo'lishga xizmat qiladigan eng asosiy vositalardan biridir. Tarbiya bo'lmas ekan jamiyat ham mavjud bo'lolmaydi. Inson shu tarbiyasi bilangina boshqa mavjudotlardan farqlanadi. Tarbiyani inson dastlab oiladan oladi va shu olingan tarbiya unga butun umrlik dasturilamal bo'lib, tarbiyaning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Agar o'z vaqtida bu ish amalga oshirilmasa, ya'ni bolalikdan tarbiya shakllanmasa, bora-bora bu boshqa turli yomon illatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu haqida turli fikrlar ham mavjudki, ulardan ayrimlarini ilova qilamiz. Masalan, Xitoylik faylasuf Syun-Szi: "Chaqaloqlar hamma joyda bir xilda yig'laydilar. Katta bo'lishgach esa turli qiliqlar qilishadi. Bu narsa tarbiyaning natijasidir",- deb yozadi. Sa'diy Sheroziy ham o'z asarlarida tarbiya haqida fikr yuritar ekan quyidagi misralarni yozib qoldirgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,
Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.

Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi,
Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

Tarbiya haqidagi bu kabi fikrlar tarixdan bugungi kungacha yetib kelgan va o'z ahamiyatini yo'qotmagan, albatta.

Axloq va tarbiya negizida shakllangan tushunchalardan yana biri bu halollikdir. Halollik arabchadan tarjima qilganda ruxsat berilgan, vijdon bilan bajarilgan, to'g'ri bajarilgan deb tarjima qilinadi. Uning ma'nosi esa shariat muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo'luvchi, odamning o'zining mehnatlari evaziga orttirgan narsalari, doimo to'g'ri va vijdonli yashashni anglatuvchi ma'naviy-axloqiy tushunchadir.

Halollik xalq orasida "insof" so'zi bilan bir xil ma'noda keladi. U insoniylikka xos bo'lgan eng asosiy fazilatlardan biri sanaladi. Uning yuzaga chiqishida vijdon muhim rol o'ynaydi. Halollik, asosan, ishonch va samimiylik bilan yuzaga chiqadi. Ishonch bor joyda esa, albatta, hurmat ham bo'ladi. Bu haqida Benjamin Franklin: "Halollik foydali, sababi u odamlarga hurmat keltiradi", -degan fikrlarni yozib o'tadi.

Halollik atamasi eng avval diniy tushuncha sifatida e'tirof etildi. Odamlar bu atamani hayot tarzi sifatida qabul qildilar va halollik me'zoniga asoslanib yashay boshladilar. Ya'ni dinda belgilab qo'yilganidek, pok va o'z mehnatlari evaziga topilgan narsalardan iste'mol qildilar va foydalandilar, birovlarining haqqiga xiyonat qilmadilar. Ammo vaqtlar o'tishi bilan halollik atamasi diniy tushuncha degan tor ma'nodan chiqib diniy-axloqiy tushunchaga o'zgardi. Halollik deganda endi faqat diniy me'zonlarnigina emas, balki axloqiy me'yorlarni ham tushuna boshladilar.

Axloqning tarkibiga kiruvchi eng muhim tushunchalardan yana biri bu ma'naviyatdir. Ma'naviyatning asosi arabchada ma'no degan tushunchaga to'g'ri keladi. U faqat falsafiy tushuncha bo'libgina qolmay, balki ilmiy, diniy, axloqiy, badiiy tushunchadir.

U inson onggi va aqli orqali paydo bo'ladi va yuzaga chiqadi. Bilamizki, u ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi. Ya'ni ichki va tashqi yo'llar orqali. Tashqi yo'l orqali amalga oshirilgan ma'naviyat insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi, yurish-turishi hisoblansa, ichki yo'l orqali amalga oshirilgan ma'naviyatga insonning his-tuyg'ulari, orzu-istaklari kabilar kiradi.

Ma'naviyat tug'ma xislat emas, aksincha, u hayot davomida o'qish-o'rganish orqali shakllantiriladi. U insonning sa'y-harakatlari va intilishlari orqali ravnaq topib rivojlanib boradi.

Prezidentimiz Shavkat mirziyoyev ma'naviyatga shunday tarif beradi: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat".

Xulosa qiladigan bo'lsak, axloqqa oid qanday termin bo'lmasin, ularning barchasi insonni komillikka yetaklaydi, ruhan va ma'nan yetuk qilib shakllatiradi. Ham ruhiy, ham ma'naviy bilimga ega insonlar va jamiyat bilan esa mustahkam davlat qura olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016
2. Sa'diy Sheroziy. Guliston
3. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat.-T.:Ma'naviyat,2002